

# **Jarqo'rg'on tumanida baliqchilikni rivojlantirish loyihalari ijrosi muhokama qilindi**



Jarqo'rg'on tumanida baliqchilikni rivojlantirish, yangi ish o'rirlari yaratish maqsadida umumiy qiymati 19,3 mlrd so'm bo'lgan jami 9 ta loyiha amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Natijada joriy yilning o'zida 360 hektar tabiiy va sun'iy suv havzalari tashkil etish, qo'shimcha 1,1 ming tonna baliq yetishtirish, 60 ta yangi ish o'rirlari yaratish maqsad qilingan.

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov Jarqo'rg'on tumani "Jayraxona" hududidagi ko'p tarmoqli "Akmal" fermer xo'jaligining 4 hektar maydonda tashkil etilayotgan baliqchilik loyihasi bilan tanishdi. Shu yerning o'zida tumanda baliqchilik loyihalarining amalga oshirilishi ahvoli, ulardagi mavjud muammolar mas'ullar va tadbirkorlar ishirokida muhokama qilindi.

Har bir loyihani amalga oshirilishi bilan bog'liq muammolarni puxta o'rjanib chiqish, hal etish, loyihalarning belgilangan muddatda, to'liq quvvatda ishga tushirilishini doimiy monitoring qilib borish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)